



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 151-159 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIK INDIKATORLARINI XALQARO ME'YORLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH



Tursunov Ilxom Toirovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini xalqaro prudensial standartlar asosida ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda Bazel III standartlari, CAMELS modeli hamda raqamli risk monitoring tizimlari asosida "Orient Finans" XATB faoliyati tahlil qilinib, kapital yetarliligi, likvidlik, rentabellik va risklarni boshqarish indikatorlarining moliyaviy barqarorlikka ta'siri baholangan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, moliyaviy barqarorlik, Bazel III, CAMELS modeli, likvidlik, kapital yetarliligi, risk-menejment, stress-test.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков на основе международных пруденциальных стандартов. На основе стандартов Базель III, модели CAMELS и цифровых систем мониторинга рисков проведен анализ деятельности АКБ «Orient Finans», а также оценено влияние показателей достаточности капитала, ликвидности, рентабельности и управления рисками на финансовую устойчивость банка.

Ключевые слова: коммерческий банк, финансовая устойчивость, Базель III, модель CAMELS, ликвидность, достаточность капитала, риск-менеджмент, стресс-тест.

Annotation: This article examines the theoretical and practical aspects of ensuring the financial stability of commercial banks based on international prudential standards. Using Basel III standards, the CAMELS model, and digital risk monitoring systems, the activities of Orient Finans Bank were analyzed, and the impact of capital adequacy, liquidity, profitability, and risk management indicators on financial stability was assessed.

Key words: commercial bank, financial stability, Basel III, CAMELS model, liquidity, capital adequacy, risk management, digital risk scoring, stress testing, early warning system.

Kirish

Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yirik ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish, korporativ tuzilmalar innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklari alohida o'rin egallaydi. Ta'kidlash kerakki, keyingi yillarda tijorat banklari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, xususan banklarda transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, ularning ustav kapitalida davlatning ishtirokini kamaytirishda borasida salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Albatta mazkur jarayonlarda davlat tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish, normativ xujjatlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirib borish muhim sanaladi. Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-fevraldagi PQ-74-son "Davlat ishtirokidagi

korxonalar va tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [1] qarorida davlat ulushi mavjud tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini xalqaro mezonlar asosida baholash, operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda banklarning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Qarorda bank tizimida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, xususiy sektor ulushini kengaytirish va zamonaviy risk-menejment tizimlarini joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Mazkur holatlar tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zamonaviy mexanizmini rivojlantirish, kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar asosida optimallashtirish, raqamli texnologiyalar yordamida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda bank tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish, bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni oldindan aniqlash va ularni samarali boshqarish mexanizmini rivojlantirish zamonaviy bank tizimining ustuvor ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari ko'lamining kengayib borishi, moliyaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt elementlarining bank tizimiga jadal kirib kelishi risk-menejment tizimini takomillashtirishni, real vaqt rejimida moliyaviy monitoringni tashkil etishni hamda banklar faoliyatini baholashning zamonaviy indikatorlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlarini yangi yondashuvlar asosida tadqiq qilish zaruratini yanada oshirmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Ilmiy tadqiqotlarda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi bank kapitali yetarliligi, likvidlikni boshqarish, risklarni minimallashtirish hamda xalqaro prudensial me'yorlarni amaliyotga joriy etish bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etish bilan birga zamonaviy tendensiyalar asosida takomillashtirib borilmoqda. Ayniqsa, global moliyaviy inqirozlar, xalqaro kapital bozorlaridagi beqarorlik va raqamli moliya texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida bank tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda Bazil III standartlari asosidagi moliyaviy indikatorlar muhim boshqaruv instrumenti sifatida e'tirof etilmoqda.

Yang F. va Zhang Y. tadqiqotlarida tijorat banklarida raqamli transformatsiya va moliyaviy inklyuziya tizimlarining kredit risklarini kamaytirish hamda bank moliyaviy barqarorligini mustahkamlashdagi rolini empirik jihatdan asoslab bergan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Big Data, sun'iy intellekt va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish kredit portfeli sifatini yaxshilash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish hamda banklarning riskka chidamlilik darajasini oshirish imkonini beradi. Mualliflar FinTech texnologiyalari bank tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashning muhim omili ekanligini ta'kidlagan [2]. Danlami M.R., Hassan M.K. va Alam N. tomonidan olib borilgan tadqiqotda CAMELS indikatorlari asosida bank moliyaviy barqarorligini baholashning ilmiy-uslubiy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida kapital yetarliligi, aktivlar sifati, boshqaruv samaradorligi, rentabellik va likvidlik

ko'rsatkichlari banklarning moliyaviy xavfsizligini belgilovchi asosiy omillar sifatida e'tirof etilgan. Mualliflarning ilmiy xulosasiga ko'ra, institutsional sifat va risk-menejment mexanizmini rivojlantirish bank tizimining barqarorligini oshirish hamda moliyaviy inqirozlarga bardoshlilikini kuchaytirishga xizmat qiladi [3]. Zhang Y. va Li G. ilmiy tadqiqotida tijorat banklarida FinTech texnologiyalarini rivojlantirishning kredit risklariga ta'siri empirik jihatdan baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli risk skoring tizimlari, avtomatlashtirilgan monitoring platformalari va sun'iy intellekt asosidagi tahlil mexanizmi bank kredit portfelidagi tavakkalchiliklarni kamaytirish imkonini beradi. Mualliflar bank faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish operatsion samaradorlikni oshirish, kredit risklarini erta aniqlash va moliyaviy barqarorlik indikatorlarini xalqaro standartlar asosida boshqarishning samarali vositasi ekanligini asoslab bergan [4]. F.Mishkin, P.Rose, J.Sinkey, T.Koch va S.Saunderslarning ilmiy tadqiqotlarida banklar moliyaviy barqarorligini baholashda kapital yetarliligi, aktivlar sifati, likvidlik darajasi hamda risklarni boshqarish tizimining samaradorligiga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning ilmiy ishlanmalarida bank kapitalining himoya funksiyasi, likvidlik buferlarini shakllantirish hamda stress-test mexanizmini qo'llash bank tizimi xavfsizligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida talqin etilgan [5].

O.B.Sattorovning fikriga ko'ra, "bank tizimi barqarorligi alohida banklar moliyaviy mustahkamligining yig'indisi bo'lib, moliyaviy barqarorlik metodologik jihatdan kapital, likvidlik, aktivlar sifati va boshqaruv samaradorligi orqali ta'minlanadi"[6]. Albatta, ushbu yondashuv bank tizimi barqarorligini mikro darajadagi omillar asosida izohlashga xizmat qiladi. Biroq, mazkur yondashuvni kengaytirgan holda, bank tizimi barqarorligi nafaqat alohida banklar ko'rsatkichlari yig'indisi, balki makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy infratuzilma rivoji va tartibga solish mexanizmi bilan uyg'un holda baholash maqsadga muvofiqdir. B.T.Berdiyarov tadqiqotlarida, "bank moliyaviy barqarorligining asosiy tayanchi likvidlik va to'lovga qobiliyatlilik ekanligini ta'kidlash mumkin. Olimning tadqiqotlari, tijorat banklari likvidlilikini boshqarish, foiz siyosati ta'siri va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish masalalariga qaratilgan." [7] Sh.Z.Abdullayeva va U.O'.Azizovning fikricha "bank barqarorligi bank faoliyatining uzluksizligi, likvidligi hamda o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati." [8] B.Izbosarovning fikriga ko'ra, "raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari likvidlilikini tartibga solish elektron xizmatlar asosida amalga oshirilib, bu jarayonning samarali usullarining yo'lga qo'yilmasligi natijasida, dastlab ular likvidsizlik holatiga tushadi, keyinchalik esa ularning faoliyatida to'lovga qobiliyatsizlik holati yuz beradi va oxir-oqibat bankrotlikka uchraydi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotda banklar kutilmagan vaziyatda likvid mablag'larga ehtiyojini qondirish maqsadida banklararo elektron pul bozori platformasini tashkil etish va samarali ishlashini ta'minlash maqsadga muvofiqdir." [9]

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital yetarliligi, likvidlik, risklarni boshqarish hamda raqamli monitoring tizimlarini xalqaro prudensial standartlar asosida integratsiyalashgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, biz tomondan tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan Bazel III tizimiga asoslangan kapital yetarliligi va moliyaviy leveraj ko'rsatkichlarini integratsiyalashgan boshqarish modeli bank kapitalining himoya funksiyasini kuchaytirish, riskka bardoshlilik darajasini oshirish

hamda moliyaviy barqarorlik indikatorlarini minimal xalqaro normativlardan yuqori darajada shakllantirish imkonini beradi. Natijada, bank faoliyatining xavfsizligi, to'lovga qobiliyatligi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashning institutsional asoslari yanada mustahkamlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik usullar, dinamik tahlil, guruhlash, iqtisodiy taqqoslash hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasini "Orient Finans" XATBning 2020-2025 yillardagi moliyaviy hisobot ma'lumotlari, bank balanslari, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar hamda bank faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar tashkil etdi. Bank moliyaviy barqarorligini diagnostika qilishda CAMELS modeli asosida kapital yetarliligi (C), aktivlar sifati (A), boshqaruv sifati (M), rentabellik (E), likvidlik (L) va risklarga sezuvchanlik (S) komponentlari bo'yicha tahlillar amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini samarali diagnostika qilish masalasi zamonaviy moliya tizimining barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Bank sektorining barqarorligi nafaqat moliyaviy vositachilik samaradorligini, balki real sektorni kreditlash hajmi va uning sifati orqali iqtisodiy o'sishni ham belgilab beradi. Shuning uchun, banklar faoliyatidagi xatarlarni erta aniqlash, tizimli risklarni oldini olish va moliyaviy inqirozlar holatlarini oldindan prognoz qilish hamda salbiy ta'sirini minimallashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv, moliyaviy innovatsiyalar va raqamli transformatsiya sharoitida an'anaviy baholash usullarining yetarli emasligi yangi, kompleks va moslashuvchan metodologik yondashuvlarni qo'llash zaruratini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Albatta, samarali diagnostika tizimi bank tizimining barqarorligini ta'minlash bilan birga, regulyator organlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda, banklar uchun esa risklarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirishda muhim instrument bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini samarali diagnostika qilish uchun yagona universal va barcha sharoitlarda optimal bo'lgan metod mavjud emas. Shuning uchun, moliyaviy barqarorlikni baholash jarayonida turli metodologik yondashuvlarning o'zaro uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, nisbiy ko'rsatkichlarga asoslangan CAMELS tizimi hamda XVJ tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy barqarorlik indikatorlari (FSI) banklar moliyaviy holatini tezkor baholash va dastlabki skrining (scoring) uchun samarali vositalardan biri deb o'ylaymiz.

Tadqiqot doirasida "Orient Finans" XATBning 2020-2025 yillardagi moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida bank moliyaviy barqarorligi indikatorlarining xalqaro me'yorlar asosidagi dinamikasi tahlil qilindi. Tahlillar natijasida bank faoliyatida Bazil III standartlariga mos kapital yetarliligi, likvidlik, rentabellik va risklarni boshqarish indikatorlarini integratsiyalashgan holda tashkil etish bankning umumiy moliyaviy barqarorligini sezilarli darajada mustahkamlash imkonini berganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

“Orient finans bank” XATBning CAMELS modeli asosida moliyaviy barqarorlik ko’rsatkichlari tahlil¹ (2020-2025 yy.)

№	Ko’rsatkichlar (mlrd.so’m)	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.	Natija
1.	Aktivlar	5128,4	5870,9	11392,3	13348,8	17234,9	19644,54	Ijoiy o’sish
2.	Majburiyatlar	4004,0	4527,6	9579,6	10878,2	13804,9	15044,2	Normal o’zgarish
3.	Xususiy kapital	1124,9	1343,4	1703,3	2247,7	3072,7	3997,6	Barqaror o’sish
4.	Jami foizli daromadlar	608,1	745,6	951,2	1377,6	1836,4	2367,8	Ijoiy o’sish
5.	Jami foizli xarajatlar	270,8	344,0	385,0	543,7	722,8	874,5	Normal o’zgarish
6.	Aktivlar bo’yicha ehtimoliy zararlarni baholashdan keyingi sof daromad	326,0	372,0	512,5	682,0	962,8	1317,8	Me’yorlar asosida
7.	Jami foizsiz daromadlar	263,9	345,9	502,7	600,0	943,5	1027,6	Ijoiy o’sish
8.	Jami foizsiz xarajatlar	104,4	149,5	225,5	218,2	352,8	454,5	Normal o’zgarish
9.	Sof foyda (zarar)	245,0	300,0	452,5	608,1	901,1	1044,0	Ijoiy o’sish
CAMELS komponenti								
C	Kapital/aktivlar	21,9%	22,9%	14,9%	16,8%	17,8%	20,4%	Kuchli
	Kapital o’sish sur’ati	-	+19%	+27%	+32%	+36%	+30%	Ijoiy
A	Kreditlar ulushi	66,6%	61,5%	45,2%	62,8%	72,4%	72,1%	O’rtacha
	Daromad keltiruvchi aktivlar	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Ijoiy
M	CIR	44,5%	46,1%	40,5%	39,5%	39,3%	36,9%	Samarali
	Aktivlar o’sishi	+14%	+14%	+94%	+17%	+29%	+14%	Barqaror
E	ROA	4,78%	5,11%	3,97%	4,55%	5,23%	5,31%	Yuqori
	ROE	21,8%	22,3%	26,6%	27,1%	29,3%	26,1%	Juda yuqori
L	Depozitlar ulushi	66,4%	76,2%	71,9%	81,5%	80,4%	82,7%	O’rtacha
	Kredit/depozit (LDR)	1,7	2,2	3,5	4,0	3,6	3,4	Xavfli
S	Foiz daromadlari ulushi	69,7%	68,3%	65,4%	69,6%	66,0%	69,7%	O’rtacha
	Bozor risklari	O’rtacha	O’rtacha	O’rtacha	O’rtacha	O’rtacha	O’rtacha	Nazorat talab etadi

2020-2025 yillar davomida bank aktivlari hajmi 5128,4 mlrd so’mdan 19644,54 mlrd so’mgacha oshib, qariyb 3,8 barobarga o’sgan. Mazkur holat bankning aktiv operatsiyalari kengayganligi hamda kredit-investitsiya faoliyati hajmi sezilarli darajada ortganligini ko’rsatadi. Xususan, kredit va lizing operatsiyalari hajmi 3415,8 mlrd so’mdan 14161,8 mlrd so’mgacha oshgan bo’lib, bu bank aktivlari tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar ulushining yuqori ekanligini ifodalaydi. Bank aktivlari tarkibida yuqori likvid aktivlar ulushi ham bosqichma-bosqich oshib borgan. Investitsiyalar hajmining 2020 yildagi 24,6 mlrd so’mdan 2025 yilga kelib 95,05 mlrd so’mgacha oshganligi bankning diversifikatsiyalashgan aktiv siyosatini yuritayotganligini ko’rsatadi. Asosiy vositalar hajmi esa 245,8 mlrd so’mdan 660,8 mlrd so’mgacha oshgan bo’lib, bu raqamli infratuzilma va texnologik modernizatsiyaga yo’naltirilgan investitsiyalar hajmi ortganligini bildiradi.

Majburiyatlar tahlili natijalari bank resurs bazasining sezilarli darajada mustahkamlanganligini ko’rsatdi. Xususan, talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar hajmi 1984,3 mlrd so’mdan 8316,5 mlrd so’mgacha oshgan bo’lsa, muddatli depozitlar hajmi 675,4 mlrd so’mdan 4122,8 mlrd so’mgacha oshgan. Bu esa bankning depozit bazasi kengayganligi va aholining bank tizimiga bo’lgan ishonchi ortganligini anglatadi.


Bank xususiy kapitali hajmi ham tahlil davrida 1124,9 mlrd so’mdan 3997,6 mlrd so’mgacha oshgan bo’lib, kapitalning o’sish sur’ati bankning moliyaviy mustaqilligi va risklarga bardoshlilikini kuchaytirgan. Xususan, ustav kapitalining 768,5 mlrd so’mdan 2700,5 mlrd so’mgacha oshishi bankning kapital bazasini mustahkamlashga qaratilgan strategik siyosat samaradorligini ifodalaydi. CAMELS tizimi asosida o’tkazilgan tahlillar bank moliyaviy barqarorligining asosiy komponentlari bo’yicha ijobiy natijalarni ko’rsatdi. Kapital yetarliligi ko’rsatkichi 2020 yildagi 21,9 foizdan 2025 yilga kelib 20,4 foiz

¹ <https://ofb.uz/ru> - ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

darajasida shakllangan bo'lib, Bazel III talablaridagi minimal me'yorlardan sezilarli yuqori darajada saqlanib qolgan. Bu esa bankning kapital xavfsizligi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Aktivlar sifati bo'yicha kreditlar ulushi 66,6 foizdan 72,1 foizgacha oshgan bo'lib, bankning daromad keltiruvchi aktivlari salmog'i ortganligini bildiradi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar hajmini qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan choralar natijasida NPL ko'rsatkichi 2022 yildagi 32,8 foizdan 2025 yilga kelib 15 foizgacha pasaygan. Muammoli kreditlar hajmi esa 0,64 mlrd so'mdan 0,15 mlrd so'mgacha kamaygan. Mazkur natijalar bankda raqamli risk scoring modeli va early warning system mexanizmlarining samarali joriy etilganligini tasdiqlaydi. Boshqaruv sifati komponenti doirasida cost-to-income ratio (CIR) ko'rsatkichi 2020 yildagi 44,5 foizdan 2025 yilga kelib 36,9 foizgacha pasaygan. Mazkur holat bank xarajatlarini boshqarish samaradorligi oshganligini hamda operatsion faoliyat optimallashtirilganligini ko'rsatadi.

Bank rentabelligi ko'rsatkichlari ham ijobiy dinamikaga ega bo'ldi. Aktivlar rentabelligi (ROA) 4,78 foizdan 5,31 foizgacha oshgan bo'lsa, kapital rentabelligi (ROE) 21,8 foizdan 26,1 foizgacha oshgan. Bu esa bank kapitalidan foydalanish samaradorligi ortganligini va bankning foydalilik darajasi yuqori ekanligini bildiradi. Moliyaviy natijalar tahlili bank foydalilik ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini tasdiqladi. Xususan, sof foyda hajmi 2020 yildagi 245,0 mlrd so'mdan 2025 yilga kelib 1044,0 mlrd so'mgacha oshib, 4,3 barobarlik o'sishga erishilgan. Jami foizli daromadlar esa 608,1 mlrd so'mdan 2367,8 mlrd so'mgacha oshgan. Bu bank kredit portfeli kengaygani va foizli operatsiyalar samaradorligi ortganligini ko'rsatadi. Likvidlilik indikatorlari bo'yicha ham ijobiy natijalar qayd etildi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan likvidlikni boshqarish modeli asosida bankda yuqori likvid aktivlar ulushi 0,197 darajada shakllantirildi, LCR ko'rsatkichi 1,415 darajaga yetkazildi va NSFR ko'rsatkichi 1,068 darajada ta'minlandi. Mazkur ko'rsatkichlarning barchasi Bazel III standartlarida belgilangan minimal normativlardan yuqori shakllanib, bankning qisqa va uzoq muddatli likvidlik xavfsizligi mustahkamlanganligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida raqamli risk tahlili (digital risk scoring) modelining tijorat banklari faoliyatiga joriy etilishi ham muhim natijalarni yuzaga keltirdi. Xususan, tashqi moliyalashtirish manbalarini tanlashda risklarni kompleks baholash asosida bank kredit portfelida muammoli kreditlar (NPL) ulushi 3,5 foizgacha pasaytirildi (1-rasm).

Bundan tashqari, bankning umumiy risk darajasi 12 foizga kamaytirildi va barcha yirik tavakkalchiliklarning umumiy miqdori 2,51 darajada shakllandi. Mazkur natijalar bankning investitsion jozibadorligini oshirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar asosida moliyaviy barqarorlik indikatorlarini integratsiyalashgan holda boshqarish banklarda: kapital sifati va yetarliligini oshirish; likvidlik risklarini kamaytirish; kredit portfeli sifatini yaxshilash; operatsion samaradorlikni oshirish; risklarni erta aniqlash tizimini rivojlantirish; investitsion jozibadorlikni kuchaytirish imkonini beradi.



1-rasm. “Orient finans bank” XATBning muammoli kreditlari tahlili²

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tijorat banklarida moliyaviy barqarorlik indikatorlarini Bazel III standartlari asosida tashkil etish bank tizimi barqarorligini ta‘minlashning muhim institutsional omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashtirish, xalqaro moliya bozorlaridagi beqarorlik, raqamli transformatsiya va moliyaviy risklarning murakkablashuvi sharoitida tijorat banklarida kapital yetarliligi, likvidlik, riskka bardoshlilik va rentabellik indikatorlarini xalqaro prudensial me‘yorlar asosida boshqarish zarurati ortib bormoqda.

Tahlillar natijasida “Orient Finans” XATB faoliyatida Bazel III standartlari asosida kapital yetarliligi va moliyaviy leveraj ko‘rsatkichlarini integratsiyalashgan holda boshqarish mexanizmini joriy etish bank kapitalining barqarorligini sezilarli darajada mustahkamlash imkonini berganligi aniqlandi. Xususan, bankda regulativ kapital yetarliligi koeffitsientining 0,202 darajada shakllanishi belgilangan minimal normativdan yuqori darajaga erishilganligini ko‘rsatdi. Shuningdek, I darajali kapital ko‘rsatkichi 0,132 darajada hamda moliyaviy leveraj koeffitsienti 0,113 darajada shakllanib, bankning tavakkalchiliklarga chidamlilik darajasi oshganligi tasdiqlandi.

Tadqiqot davomida real vaqt rejimidagi monitoring tizimlari, erta ogohlantirish tizimi (early warning system) hamda stress-test mexanizmini bank amaliyotiga joriy etish moliyaviy risklarni erta aniqlash va operatsion samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanligi asoslandi. “Orient Finans” XATBda risk-indikatorlar va zamonaviy analitik

² <https://ofb.uz/ru> - ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

platformalarni joriy etish natijasida cost-to-income ratio - (CIR) ko'rsatkichi 42 foiz darajasida shakllanib, xarajatlarni boshqarish samaradorligi oshganligi kuzatildi. Shu bilan birga, aktivlar rentabelligi (ROA) 10,4 foizni va kapital rentabelligi (ROE) 29,3 foizni tashkil etib, bank faoliyatida yuqori daromadlilik va moliyaviy samaradorlikka erishilganligini ko'rsatdi.

Likvidlik risklarini boshqarish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bankda yuqori likvid aktivlar ulushi 0,197 darajada shakllandi, likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) 1,415 darajaga yetkazildi hamda sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR) 1,068 darajada ta'minlandi. Mazkur ko'rsatkichlarning barchasi xalqaro prudensial normativlardan yuqori darajada shakllanganligi bankning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi mustahkamlanganligini ko'rsatadi.

Tahlillar natijasida raqamli risk skoring modelini bank faoliyatida qo'llash kredit portfeli sifatini yaxshilash hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Xususan, "Orient Finans" XATBda mazkur modelni joriy etish natijasida muammoli kreditlar (NPL) ulushini 3,5 foizgacha kamaytirish hamda umumiy risk darajasini 12 foizga qisqartirish imkoniyatiga erishilgan. Bu esa bankning investitsion jozibadorligini oshirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Fikrimizcha, "Orient Finans" XATB faoliyatida Bazel III standartlariga mos integratsiyalashgan moliyaviy barqarorlik monitoring tizimini yanada takomillashtirish va riskka asoslangan nazorat mexanizmini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, bank faoliyatida real vaqt rejimidagi risk monitoring platformalari, Big Data va sun'iy intellekt asosidagi analitik tizimlarni keng joriy etish orqali risklarni prognozlash samaradorligini oshirish zarur.

Likvidlik risklarini boshqarishda LCR va NSFR ko'rsatkichlarini minimal xalqaro normativlardan yuqori darajada shakllantirish orqali bankning likvidlik buferlarini mustahkamlash kerak. Kredit portfelidagi tavakkalchiliklarni kamaytirish maqsadida raqamli risk mexanizmi (digital risk scoring) va avtomatlashtirilgan risk monitoring tizimlarini bank amaliyotiga kengroq integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bank faoliyatida stress-test mexanizmini makroiqtisodiy xavf-xatarlar va global moliyaviy inqirozlar ta'sirini hisobga olgan holda takomillashtirish bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-fevraldagi "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-74-son qarori.
2. Yang F., Zhang Y. Role of financial inclusion and digital transformation on bank credit risk // Research in International Business and Finance. – 2024. – Vol. 69.
3. Danlami M.R., Hassan M.K., Alam N. CAMELS, risk-sharing financing, institutional quality and Islamic banks' stability // Journal of Islamic Accounting and Business Research. – 2022. – Vol. 13, No. 9. – pp. 1354–1373.
4. Zhang Y., Li G. Impact of the development of FinTech by commercial banks

on credit risk // Research in International Business and Finance. – 2023. – Vol. 66.

5. Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – 11th ed. – Boston: Pearson Education, 2016. – 720 p.

6. Sattorov O.B. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish. DSc ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati – T.: TMI, 2018. – 67 bet.

7. Berdiyarov B.T. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to‘lov qobiliyatini ta‘minlash masalalari: DSc ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati – T.: O‘zR. BMA 2020. – 23-b.

8. Abdullayeva Sh.Z., Azizov U.O‘. Bank ishi: Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2019. – 540 b.

9. Izbosarov B.B. Globallashuv sharoitida tijorat banklarining likvidliligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish. DSc ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati – T.: 2023. – 19 bet.

10. Shibata T. and Nishihara M. Optimal financing and investment strategies under asymmetric information on liquidation value. Journal of Banking & Finance Volume 146, January, 2023.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

